

ZAMONAVIY MUTAXASSISLARDA KOMPLAENSNI SHAKLLANTIRISHIDA KREATIVLIKNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Kosimova N.D. – Andijon davlat chet tillari instituti
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar, pedagogika va psixologiya” kafedrasida
dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi.*

*Ishanova M.M. – Andijon davlat chet tillari instituti
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar, pedagogika va psixologiya”
kafedrasida katta o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada oliy ta’lim muassasasida o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda komplaens va kreativlikning ilmiy, psixologik, asoslarini kasbiy va hayotiy pozitsiyasida tatbiq etishning nazariy va psixologik xususiyatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *komplaens, kompetensiya, iinovatsiya, innovatika, strategiya, interaktiv metod, liberalizatsiya.*

Respubliqamiz oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilari va talabalarining kreativ salohiyatini oshirish, kasbiy muvofiqliq qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini shaqqllnatirish, o‘quv reja, dastur va adabiyotlar yaratish tizimini yanada takomillashtirishning huquqiy me’yoriy asoslari yaratildi, ta’lim tizimni moddiy texnik bazasi rivojlantirildi. “Oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va intellektual fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual salohiyatini amaliyotda ko‘rsata olish va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish”¹², kabi vazifalar belgilab berilgan. Buning uchun oliy ta’lim muassasa qo‘p yillik tajribaga ega professor-o‘qituvchilarining kompetentsiyaviy tajribasi yetarli, ayni vaqtda zamonaviy ta’lim berishda, sifat – samaradorlika erishishda yosh o‘qituvchilar va talabalarda komplaensni shaqqllantirish muhimdir.

“Komplaens” so‘zi (*ingl.* so‘zdan “comlianse” – muvofiqlik, rozilik) ma’nosini bildiradi. Ushbu termindan birinchi bo‘lib, G‘arb mamlakatlarida huquq – tartibot organlari xodimlari foydalanishgan. Rossiyada bu atama yirik xorijiy qompaniyalar qelishi bilan paydo bo‘ldi, bu kabi faoliyat davlatning ajralmas dolzarb qismiga aylandi. Keng ma’noda, bu atama bozor ishtiroqchilari bilan bog‘liq qonun, mehyorlar, o‘zini-o‘zi boshqarish qoidalariga rioya qilmasliq natijasida qelib chiqadigan xuquqiy yoqi tartibga soluvchi sanqtsiyalar, moddiy –moliyaviy inqirozlarga uchrash yoqi hurmat –e’tiborni yo‘qotish xavfini anglatishi haqida ma’lumotlar berilgan.

Zamonaviy yondashuv jarayonida bugungi kunda komplaensni shakllantirishda biz innovatsion goya va texnologiyalarni o‘zlashtirishda, ta’lim -tarbiya sohasidagi keng qo‘llanilayotgan tushunchalarni bilishimiz zarur, bular:

Pedagogik va innovatsion texnologiyalar, ilgor texnologiya va tajribalar, innovatsiya va innovatika, pedagogik neologiya, praksiologiya, aksiologiya, interaktivlik, strategiyalar, liberalizatsiya, ta’limda axborot kommunikatsion texnologiyalar, ta’lim -tarbiya psixologiyasi va b.

Bu tushunchalar o‘z navbatida komplaensni shaqqllanishiga ta’sir ko‘rsatishi bilan birga yosh o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida “kreativlik” xarakterini ham rivojlantiradi. Kreativlik bu ijodiy rivojlanish, ijod qilish kabi ma’noni bildiradi. Bugungi kunda, ayniqsa, psixologiya sohasida kreativlikni ilmiy tadqiqot nazariyasini ilmiy asoslab bergan rus olimlardan

¹² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 сентябрдаги “Ўзбекистон Республикаси oliy ta’lim tizimining 2030 yilgacha rivojlanishi konseptsionini tasdiqlash to’g’risida” ПФ-5847-сон Фармони.

Yu.Agafonov, Yu.Lotman, G.S.Batishhev, M.M.Baxtin, I.Meerson, R.Yaqobsonlar quyidagicha ta’rif berishgan:

Kreativlik bu ma’naviyat – madaniyat vositasi asosida shaxs sifatida shakllanishi jarayonida namoyon bo‘ladigan individual xususiyatidir.

Kreativlik – bu har bir shaxsni zamon talablariga mos holda shakllantirib, o‘zini-o‘zi takomillashtirib va rivojlantirib borish ta’ir mexanizmidir.

Olimlar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalarga ko‘ra, kreativlikning ikkita komponentini aniqlashgan:

A) shaxsiy mazmun, har bir shaxsning shaxsiy hayotiy pozitsiyasi, ya’ni maqsadi va amalga oshirish harakatlarining mazmuni. Buning zahirida ma’naviyati va madaniyati bilan bog‘liq hususiyat namoyon bo‘ladi. Har bir inson biron bir soha yoki faoliyat bilan shugullanar ekan, u kreativlik, ya’ni yaratuvchilik kompozitsiyasiga ega bo‘lishligi bilan bog‘liq. Bu komponent o‘z navbatida insoniyatning madaniyat, san’atga yo‘altirilganligidir.

B) Signifikatsion ko‘nikmalar.

Kreativlikni tashxis qilish psixosemiotik tahlil bilan ham bogliq bo‘lib, quyidagi jihatlarni aniqlashga doir qator metodlarni tavsiya etishgan. Lekin bu metodlar bevosita kreativlikni emas, balki kreativ fikrlashni belgilab beruvchi muayyan jihatlarni aniqlashga qaratilgandir, bular:

A) psixosemiotik analiz metodlar:

–mualliflik ma’nolarini analiz qilishning psixosemiotik tashhislash metodi, Ye.Torrens metodi, D.A.Leontev metodi, G.Myurreyning “Tematik appertsitiv matn” metodi, ekspertlarning baholash metodlari.

B) ijtimoiy intelleqtni (aqlni) aniqlashga oid metodlar:

–D.Gilford va M.Sativeni metodi, T.Lirining shaxslararo muloqotini aniqlash metodi, karakter aksentuatsiyasini aniqlash metodlari,

V) matnlarni psixosemiotik tahlil qilish metodlari:

–“ko‘lam” va “leksik bog‘liqlik”, kompyuter dasturlari va b.

Kreativlik shaxsiy mazmun va unga doir belgilarning obyektivligi bilan ham belgilanadi. Shuningdek, kreativlikning rivojlanishi uning komponentlarini rivojlanishiga bog‘liq. Bular: shaxsiy mazmun va signifikatsion ko‘nikmalar.

Kreativlikni tashxis qilish – ijodiy faoliyatning mahsuldorligini ko‘rsatqichlari bilan bog‘liq. Ta’lim olish jarayonida ta’lim berishning turli hilligi uning madaniyatini rivojlantirish xususiyatiga ega. Ushbu kompleksni esa shaxsning o‘zi modellashtiradi va amalga oshiradi. Ta’lim olish kengligi yuksak madaniyatini shakllantirib, kreativlikning rivojlanish samaradorligini belgilaydi.

Ta’lim olish kengligida kreativlikni rivojlantirishning asosiy pragmatik tavsifi sifatida dialog katta ahamiyatga ega. Kreativlikning shaxsning ma’naviy-ahloqiy sifatleri bilan bog‘liq jihatlari tahlil etilgan. Yuqoridagi ilmiy farazlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, kreativlik tushunchasiga nisbatan bir-biriga zid bo‘lgan quyidagi turli hil qarashlar ham mavjud, bular:

- Kreativlik– bu shaxsning butun hayoti davomidagi sifatleri majmuidir;
- Kreativlik – bu shaxsning o‘ziga topshirilgan muayyan topshiriq va vazifani bajarishda mahsuliyatliligi;
- Kreativlik – bu intellekt (aql)ning mahsulidir;
- Kreativlik – bu shaxsga berilgan qobiliyat, qashfiyotlar;
- Kreativlik– bu ijodqor shaxslarning mahnaviy-axloqiy va ijtimoiy moslashuvidir;
- Kreativlik – bu madaniyat bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan kategoriya. Shu bilan bir qatorda psixologiyada ijod va ijodiy faoliyat muammosini o‘rganuvchi alohida yo‘nalish – ijodkorlik psixologiyasi tarmogini o‘z ichiga oladi.

Ijodkorlik psixologiyasining asosiy maqsadi psixologik qonuniyatlar, ijod jarayoni mexanizmi va kreativ (creativity –inglizcha ijodiy)liqni o‘rganishdan iborat. Ijodkorlik rivojlanish mexanizmini, (N.V.Kipiaki, A.M.Matyushin, Ya.A.Ponomaryov,

I.N.Semyonovlarning qarashlari M.S.Bernshteyn, V.S.Bibler, V.N.Shin, O.K.Tihomirov, Ye.G.Yudinlarning ilmiy ishlari bilan bog‘liq xususiyatlarini aniqlashgan. Psixologiy ijodkorlikning kreativlik deb nomlanuchi yo‘nalishi ustida Garb olimlaridan J.Gilford, S.Liding, V.Smit, D.Galperin va boshqalar ham ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Xulosa qilib aytganda, komplaens ijodqorlikning ham asosiy elementar maxsuli bo‘lib, kreativ bilim, faoliyat va istakning uygunligi har qanday ta‘lim -tarbiya jarayonini rivojlanishiga samarali hissa qo‘shadi. Tahlil natijalaridan ko‘rinib turibdiki, kreativlik masalasi ilm-fanda asosan psixologik tushuncha (qategoriya) sifatida tahlil etilgan, hamda uning bevosita inson psixikasi va faoliyati bilan bog‘liq e‘qanligi e‘tirof etilgan. Agarda til va nutq inson psixikasining mahsuli sifatida namoyon bo‘ladigan bo‘lsa, komplaens va kreativlik ko‘p jihatdan pedagogik-psixologik xususiyatlari bilan o‘qituvchilarni muvaffaqiyatga erishishiga zamin yaratadi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Azizxojayeva N.N. Pedagogiy texnologiya va pedagogik mahorat. –T.: TDPU, 2003.
2. Azizxojayeva N.N. Педагогические технологии и подготовка учителей. – Ташкент, 2000.
3. Боявленская Д.Б. Творческая личность и ее диагностика и поддержка. Психологическая служба ВУЗА: принципы и опыты из работ. –М., 1993.
4. Ботник Д. и др. Инновационное обучение, микро электроника институт перспектива. Вопросы образования. –Париж, 1983.
5. ҚОДИРОВА, Н. М. ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ В УЗБЕКИСТАНЕ. *ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ В УЗБЕКИСТАНЕ Учредители: Министерство высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан*, (2), 85-99.
6. Qodirova, N. M., & Saodatoy, S. (2023). INGLIZ VA OZBEK TILLARIDA FRAZEOLGIK BIRIKMALAR. Finland International Scientific Journal of Education. *Social Science & Humanities*, 11(3), 896-898.
7. Muxtarovna, Q. N. (2022). COMPLIMENT WORDS IN GERMAN AND UZBEK LANGUAGES: MEANS OF EXPRESSION AND FUNCTIONAL TYPES. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, 2(1.6 Philological sciences).
8. Қодирова, Н. М. (2022, January). НЕМИС ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА “КОМПЛИМЕНТ” КОНЦЕРТИНИ ИФОДАЛАНИШИДА ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИК КЎРИНИШИ. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 2, No. 1).
9. Кодирова, Н. М. (2021). COMPARATIVE ANALYSIS OF ISOMORPHIC AND ALLOMORPHIC ASPECTS OF COMPLIMENT CONCEPT IN GERMAN AND UZBEK LANGUAGES. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫКА, ОБРАЗОВАНИЯ, ПЕРЕВОДА*, 4(2).
10. Qodirova, N. M., & Dilafruz, R. (2023). EXPRESSIONS OF COMPLIMENTS. *IMRAS*, 6(6), 185-188.